



PIRLS HIKOYALARI ORQALI TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Hasanova S.K.

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Tayanch soʻzlar: PIRLS xalqaro baholash dasturi, topshiriqlar, biblioterapiya, 4K modeli, tadqiqot, boshlangʻich sinf oʻquvchilari, badiiy, axborot, anglash, tushunish, diqqat, oʻqish savodxon-ligi, mantiqiylik, biblioterapiya, terapevtik hikoyalar, tushunish jarayonlari, xarakter, aks ettirish, hiss-iyot, insonning ruhiyati.

Ключевые слова: международная программа оценки PIRLS, задания, библиотерапия, мо-дель 4К, исследование, ученики начальной школы, художественность, информация, осведом-ленность, понимание, внимание, грамотность чтения, логика, библиотерапия, терапевтические истории, процессы понимания, характер, отражение, эмоции, психика человека.

Key words: PIRLS International Assessment Program, tasks, bibliotherapy, 4K model, research, elementary students, artistic, information, awareness, comprehension, attention, reading literacy, logic, bibliotherapy, therapeutic stories, understanding processes, character, reflection, emotion, human psy-che.

Rivojlanib borayotgan taʼlim tizimimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mu-taxassilarga boʻlgan talabni yanada oshirmoqda. Bu oʻz-oʻzidan oʻquvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va oʻqituvchilarning har tomonlama taʼlim- tarbiyaga eʼtiborini kuchaytirishni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar yoshlar taʼlimining jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi oʻrnini muhim deb hisoblaydi. Shu bois ham ular taʼlim sifatiga alohida eʼtibor qara-tadi. Ayni davrda yurtimizda ham taʼlim sohasidagi sifat tushunchasi ancha ommalashib ulgurdi. Ke-lajak yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, keng dunyoqarashini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat uchun, balki, xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun taʼlim sifati, taʼlim sifatini baholash kabi masalalar bilan koʻpgina xalqaro tashkilotlar maʼlum bir talabgor davlatlarda taʼlim sohasini baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS,

SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga tatbiq etishgan. Ammo, PIRLS o'zbekiston ta'lim tizimi uchun yangilik emas! Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun amalda qo'llanayotgan bu tadqiqot ta'lim tizimimizda maktablarda dars jarayonida qo'llanishi, 1-sinfdan o'quvchilarga tadqiqot doirasida imunitet hosil qilinib, topshiriqlarni ongli tarzda bajarish maqsad-larimizdan biridir.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

PIRLS bilan bir qatorda ommalashayotgan biblioterapiya ham, o'quvchilarni kitobxonlik aso-sida ta'lim-tabiya jarayonini tashkillashtirishga yordam beradi. Biblioterapiya deganda kitob o'qish orqali davolash tushuniladi, ya'ni bu terapiya (davolash) usulining bir turidir. Aslida bu atama qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinmoqda. Kitoblar ko'p yillar davomida odamlar uchun davolash vositasi bo'lib kelgan, so'nggi paytlarda esa “biblioterapiya” so'zi odamlarda qiziqish uyg'ota boshladi. Ammo bu mavzu bo'yicha mahalliy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayotganligi sab-abli ko'pchilik mavzu nimani anglatishini to'g'ri tushunmay qoldi.

Kitobni o'qiyotganda hissiy holatiga ko'ra, inson muammolarga ijodiy yondashishni o'rganadi. Bu odamlarga boshqa chiqish yo'llari borligini ko'rsatadi. Odam kitobda o'zini asarda berilgan qahramonlar bilan solishtirishga kirishadi. Masalan, o'xshashlik va farqlarini, voqea-hodisalarga yondashish yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish va shunga ko'ra u qahramonning ba'zi xususiyatlari va mahoratini o'ziga xos tarzda qo'llay boshlaydi. Bu o'z-o'zini rivojlantirish yo'lining boshlanishi demakdir. Biblioterapiyaning eng muhim afzalliklaridan biri kitobni o'qigan inson o'zini to'liq qabul qila boshlaydi. Vaqt ortgan sayin o'ziga ishonchi ortadi. Aynan shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda biblioterapiyani qo'llash, o'quvchilarga kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Hikoya yoki muayyan ma'lumot o'qishni o'z ichiga olgan ijodiy san'at terapiyasi bo'lmish biblioterapiya insonning kitoblar, she'rlar va boshqa yozma so'zlarning mazmuni, munosabatidan terapiya sifatida foydalanadi. O'qilayotgan har bir kitobni o'quvchilar bilan qayta tahlil qilish, ushbu asarning tag ma'no mazmuni nimalardan iborat ekanligini suhbat metodi orqali aniqlashimiz, ularning fikrini



to'g'ri yo'naltirib, kelajak hayotida qay darajada ahamiyat kasb etishi haqidagi tasavvurlarini anglatishimiz kerak. O'quvchilarning biblioterapiyaga bo'lgan qiziqishini or-tirish faqat o'qituvchining yelkasiga yuklatilmaydi, bu jarayonda ota-onalar ham faol ishtirok etishi lozim. Birgalikda kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Inson o'z farzandini kitob mutolaasiga o'rgatar ekan, avvalo o'zi ham bu ishda o'rnak bo'lishi kerak.

PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi.

Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish, uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

PIRLSda har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqish-ga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda konkret yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlarning xususiyatlari. Matnlar PIRLS dasturida mu-rakkabligiga qarab, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan, 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.

Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Matnda berilgan ma'lumotning aniq va to'liqligini baholash;
- Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash;
- Insonlarning o'ylari va bajaradigan ishlarini o'zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash;
- Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash;
- Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta'sirini tasvirlash;

– Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi.

– Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topish 20%;

– To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish 30%;

– G'oyalar va axborotni umumlashtirish, talqin qilish va uyg'unlashtirish 30%;

– Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish 20%.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 4K modeli asosida yaratilayotgan boshlang'ich sinf kitoblari rasmlar va matnlardan tashkil topgan. Topshiriqlarda o'quvchilarning ijodiy fikrlashi nazarda tutiladi. Aynan, 4K modelidan foydalanib, PIRLS topshiriqlarini tashkillashtirsak o'rinli bo'ladi, deb hisoblayman. Bu jarayonda sinf rahbari va fan o'qituvchilardan pedagogic mahoratini ishga solib, dars jarayonini tashkillashtirish talab etiladi.

Namuna sifatida quyidagi hikoyaning tahlilini ko'rib chiqamiz:

Deraza tokchasi. Mana 15 kundirki, deraza tokchasida turgan gul zerikishni boshladi! Endi unga bu joy torlik qilar, havo yetishmayotganidan, quyosh nurlariga to'yinmayotganidan nolir va o'zini yomon his qilayotgandek tutar edi. Deraza ortidagi gullarga boqib havas qilar ekan, u ham toza havodan oziqlanib, yaproqlarini quyosh nurida erkin va yoqimli harakatlantirishni orzu qila boshladi. Xonadon qizlari xonani tozalash uchun barcha buyumlarni tashqariga olib chiqishdi. Navbat gulga yetdi! Orzusi amalga oshayotgan gul tuvagidan sakrab chiqib, tashqariga otilgudek bo'lar edi. Xonadan ilk marta tashqariga chiqqan gul behad shod, behad xursand edi! To'yib-to'yib nafas oldi, yaproqlari bilan quyoshni to'sib uni uzoq kuzatdi! Yonidagi gular bilan do'stlashib,



ularni kuzatgani, havas qilganini aytib berdi, rossa deguncha hasratlashdi. Negadir quyosh nurlari faqat unga nur sochayotgandek tanasi qizib, majolsiz holga keldi. Hatto, zirqirab og‘riyotgan yaproqlari bilan o‘zini berkitishga urinar, ammo buni uddasidan chiqa olmayotgan edi. Bor kuchini to‘plab, toza havodan nafas olar ekan, so‘nggi bor yuzi quyosh tomonga o‘girildi. Qizlar xonani tozalab bo‘lgandan so‘ng tashqariga olib chiqqan buyumlarini yana qayta olib kirib joylashtirib chiqishdi. Tuvagidan osilib yer-ga yotib qolgan gulning yaproqlari so‘lishga ham ulgurgan edi. Gulni bu ahvolda ko‘rgan qizlar uni tashlab yuborishga ko‘zi qiymadi. Umid ila suv qo‘yib yana o‘sha tokchaga qo‘yib ketishdi. To-mirlariga yetib borgan suv uni qitiqlagandek, etini junjiktirib yubordi! Gul ko‘zlarini noumid qayta ochdi. Yaproqlarini qimirlatib ko‘rdi. Chuqur nafas olib, boshini ko‘tar ekan o‘zini yana o‘sha deraza tokchasida ko‘rdi. Asta-sekinlik bilan jonlanayotgan gul oynaga suyanar ekan, deraza tokchasiga mehr bilan tikilib qoldi. Nolishli kunlar o‘rnini shukronalik egallagan, o‘zi uchun qadrli bo‘lib borayotgan “o‘z o‘rnini” to‘laqonli egasiga aylangan edi. O‘sha kunlarni xotirlar ekan: “Yaxshi ham sinovli kunlar bor. O‘sha kunlar sabab o‘z o‘rnimni, haddimni va eng muhimi xonamni qadrini bildim” – deb atrofni sinchiklab kuzatar edi.

Savollar:

1. Gul qayoqda turgan edi?
 - a) stol ustida
 - b) polda
 - c) oshxonada
 - d) deraza tokchasida
2. Deraza tokchasidagi gul nimaga havas qilar edi?
 - a) derazaortidagi gullarga
 - b) erkin nafas olishga
 - c) quyosh nurlariga
 - d) yaproqlariga
3. Nima sababli gul tuvagidan sakrab chiqib tashqariga otilgudek bo‘lar edi?
 - a) o‘zini yomon xis qilayotgandi
 - b) orzusi amalga oshayotgandi
 - c) quyosh nuriga to‘yingandi
 - d) havo yetishmagandi
4. Yaproqlari bilan quyoshni to‘shib uni uzoq kuzatdi. Ushbu jumlaning izohlang.
5. Tanasi qizib, majolsiz holga kelishiga sabab nima edi?
 - a) quyosh nurlari faqat unga nur sochayotgan edi
 - b) daraxt soyasi tushib, quyoshga boqa olmayotgan edi

- c) do‘stlashgan gullari hafa qildi
 d) suv ichgisi kelgan edi
 6. So‘nggi bor nega yana quyoshga boqdi?
 7. Gulni tashlab yuborishganda nima bo‘lar edi?
 8. Hikoyadagi voqealarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring. Birinchisi siz uchun bajarilgan.

- ___ Navbat gulga yetdi.
 ___ Nolishli kunlar o‘rnini shukronalik egalladi.
 ___ Gul ko‘zlarini noumid qayta ochdi.
 ___ Deraza ortidagi gullarga boqib, havas qilar edi.
 9. Deraza tokchasiga mehr ila boqishning sababi nima edi?
 10. Hikoya mazmuniga mos epigraf qo‘ying.

Ushbu hikoyani tahlil qilish jarayonida umumiy xulosani o‘zbek xalq maqollari, hikmatli so‘zlarni qo‘llash orqali ifodalash o‘rinlidir. Negaki, har bir hikoyani tarbiyaviy ahamiyati ochib ber-ilishi zarur. Bu hikoyadan xulosa qilib, har bir inson yuqotganidan keyin qadrlashi, Vatanini boricha sevishi va rivojlanishi uchun hissasini qo‘shish kerakligi o‘quvchilarga tushuntiriladi.

Adabiyotlar:

1. Ina V.S.Mullis va Micheal O.Martin, muharrirlar PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi Tosh-kent 2021
2. Hasanova Sabohat Komil qizi “Kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘zlashtirishida biblioterapiyaning o‘rni” Ta’lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: Nazariya va amaliyoti Respublika II ilmiy – amaliy konferensiyasida 2023
3. Hasanova Sabohat Komil qizi “Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturini takomillashtirish” Zamonaviy Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalar, muammolar va rivojlantirish istiqbollari xalqaro ilmiy- amaliy konferensiyada 2023
4. Hasanova Sabohat Komil qizi “O‘qish savodxonligi darslarida pirls hikoyalarini qo‘llash metodikasi” “integrational conference on interdiscinlinary science” 2024
5. Kichik yong‘oq daraxti |Mat|: / Hasanova Sabohat Komil qizi «KITOB NASHR» - 2024-yil. 105 b.
6. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 Tadqiqotida raqamli test topshiriqlarining turlari va javob formatlari. Interpretation and Researches, 1(1). izvlecheno ot <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/859>
7. Djumayeva, H. ., & Turayev , A. . (2022). Methodology of combinatory problems solving in the timss international assessment program in primary class mathematics lessons. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 1224–1228. izvlecheno ot <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/6701>
8. Shamsiddinova, M., & Xaydarova , M. (2023). Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar. Interpretation and Researches, 1(1). izvlecheno ot <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/868>
9. Хайдарова, М. (2023). Научно-теоретические основы преподавания дисциплины воспитания. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(10). <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N47>



10. Murodullo O'g, T. R. A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish xalqaro baholash dasturi misolida. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 4(1), 87-90.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maolada PIRLS xalqaro baholash dasturida qo'llanilgan hikoyalar va topshiriqlar orqali tarbiya jarayonini tashkil etish haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

На этом уроке подробно рассматривается организация образовательного процесса через истории и задания, используемые в программе международного оценивания PIRLS.

SUMMARY

In this lesson, the organization of the educational process through the stories and tasks used in the PIRLS international assessment program is discussed in detail.